ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

ALISHER NAVOIYNING TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIKKA QO‘SHGAN HISSASI

Bozorova Gulchexra,
Axmedova Xurshida
NDKTU akademik litseyi o‘qituvchilari

Annotatsiya. Buyuk shoir Alisher Navoiyning ilmiy va ma’naviy merosini o‘rganish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar. Navoiy asarlari tilining o‘ziga xosligi va bugungi kunda o‘rganilishi, tadqiqotlar xaqida ma’lumotlar berilgan.

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning o‘zbek tilining shakllanishi, boyishi va ilmiy til darajasiga ko‘tarilishiga qo‘shgan ulkan hissasi tahlil qilinadi. Ayniqsa, uning “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mizan ul-avzon”, “Majolis un-nafois” kabi asarlari orqali tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasidagi nazariy qarashlari, amaliy yondashuvlari yoritiladi. Navoiy o‘z asarlari bilan nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham ilmiy fikr taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkir sifatida o‘rganiladi.

Kalit so`zlar:Alisher Navoiy “Hayrat-ul-abror”, Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston va Turkiyadagi lug’at kitoblar, “Muhokamat-ul-lug’atayn” asari. tilshunoslik, adabiyotshunoslik, o‘zbek tili, nazariy qarashlar, “Mizan ul-avzon”, ilmiy meros, badiiy til, she’riyat, poetika.

Абстрактный. Ведется работа по изучению научного и духовного наследия великого поэта Алишера Навои. Уникальность языка произведений Навои и его изучение сегодня, исследование.

В статье анализируется большой вклад Алишера Навои в формирование, обогащение и возвышение узбекского языка до уровня научного языка. В частности, такие его труды, как «Мухокамат ул-лугайин», «Мизан ул-авзан» и «Майолис ун-нафаис», проливают свет на его теоретические взгляды и практические подходы в области языкознания и литературоведения. Навои изучается как мыслитель, который своими трудами внес значительный вклад в развитие научной мысли не только своего времени, но и современности.

Ключевые слова: «Хайрат-уль-аброр» Алишера Навои, словари Средней Азии, Ирана, Индии и Турции, «Мухокамат-ул-лугатайн». языкознание, литературоведение, узбекский язык, теоретические взгляды, «Мизан ул-авзон», научное наследие, художественный язык, поэзия, поэтика.

ALISHER NAVOI'S CONTRIBUTION TO LINGUISTICS AND LITERARY STUDIES

Bozorova Gulchekhra,
Akhmedova Khurshida
Teachers of the Academic Lyceum of the National Kazakh State Technical University

Abstract. Work on the study of the scientific and spiritual heritage of the great poet Alisher Navoi. The uniqueness of the language of Navoi's works and its study today, research.

This article analyzes Alisher Navoi's great contribution to the formation, enrichment and elevation of the Uzbek language to the level of a scientific language. In particular, his theoretical views and practical approaches in the field of linguistics and literary studies are highlighted through his works such as "Muhokamat ul-lughatain", "Mizan ul-avzon", "Majolis un-nafois". Navoi is studied as a

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

thinker who made a great contribution to the development of scientific thought not only in his time, but also today.

Keywords: Alisher Navoi's "Hayrat-ul-abror", dictionaries in Central Asia, Iran, India and Turkey, the work "Muhokamat-ul-lughatain". linguistics, literary studies, Uzbek language, theoretical views, "Mizan ul-avzon", scientific heritage, artistic language, poetry, poetics.

Kirish.

O‘zbek tilining ravnaqi, adabiy me’yorlarining shakllanishi, nazariy-tilshunoslik asoslarining rivojida Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liq beqiyos meros muhim o‘rin tutadi. U nafaqat ulug‘ shoir, balki atoqli tilshunos, adabiyotshunos va nazariyotchi sifatida ham yuksak e’tirofga sazovor. Navoiy o‘z davrida mavjud bo‘lgan ikki asosiy til — forsiy va turkiy tillar orasidagi farqlarni chuqur tahlil qilib, turkiy tilning boy imkoniyatlarini isbotlagan. Ayniqsa, uning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida keltirilgan dalillar turkiy tilni ilmiy jihatdan qadrlashga asos bo‘lgan. Shuningdek, Navoiy “Mizan ul-avzon”da aruz ilmining nozik jihatlarini ochib bergan bo‘lsa, “Majolis un-nafois”da esa adabiy tanqid va badiiy tafakkur rivojiga hissa qo‘shgan. Ushbu maqolada shoir va olim sifatida Navoiyning tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik sohasiga qo‘shgan hissasi ilmiy asosda yoritiladi.

Avliyolar avliyosi, mutafakkirlar mutafakkiri, shoirlar sultoni bo‘lgan, millatimiz sharafini ko‘klarga ko‘targan, yurtimiz dovrug‘ini butun olamga tarannum etgan ulug‘ allomamizning mashhur 51 ming misradan ortiq “Xamsa”, 42 ming misradan ortiq “Xazoyin ul-maoniy”, “Mahbub ul-qulub”, “Muhokamat-ul lug‘atayn”, “Lison-ut tayr”, “Tarixi mulki Ajam”, “Majolis un-nafois”, “Mezon ul-avzon” va boshqa shoh asarlari har jihatdan yuksak ahamiyatga, qudratli kuch va jozibaga egadir.

Bashariyat tamadduni, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning ma’naviy kamol topishida yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan Navoiy asarlari o‘rni va roli har tomonlama beqiyosligini yaxshi bilamiz. Zero, ezgulik va hayot mazmunini o‘zining ohangdor satrlari, falsafiy fikrlari, teran tashbehlari, go‘zal so‘z san’ati bilan yorqin ifoda eta olgan Navoiydek shoir dunyoda kamdan kam topiladi, desak hech qachon xato qilmaymiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Alisher Navoiydan bizga buyuk bir adabiy – ilmiy meros qolgan. Hozirgi kunlarda Navoiyni tushunish, ijodiy merosini targ‘ib va tashviq etishni ilmiy asoslarda tashkil qilish masalasi davlat siyosati darajasiga qo‘yilmoqda ekan, navoiyxonlarga muayyan qulaylik yaratilayotgan bir paytda barchaning zimmasidagi mas’uliyat hissi yanada oshadi.

Ulug‘ o‘zbek mutafakkir shoiri Alisher Navoiy ”Hayratul abror” dostonida adabiyotning ahamiyati, mazmun va shakl birligi, tilning obrazliligi kabi masalalar haqida gapirib, xalq tilini chuqur bilishning ahamiyatini uqtirgan. Uning ta’kidlashicha, tilni yaxshi bilmasdan turib badiiy asarning mazmundor bo‘lib chiqishini ta’minlash mumkin emas.

Yozuvchi so‘z dengiziga suzib, ma’no gavharlarini tera olgandagina yaxshi badiiy asar yozish mumkin:

Ul kishi so‘z bahrida g‘avvosdir
Kim guhari anga xosdir

O‘zbek tili uzoq va boy tarixga ega bo‘lgan tildir. Chunonchi, Alisher Navoiy tilini o‘rganish masalasini olaylik. Hazrat Alisher Navoiyning buyuk nazmiy va nasriy asarlari so‘z boyligi bilan ham, uslubi bilan ham ulkan bir xazina hisoblanib, ularning lisoniy-uslubiy xususiyatlarini o‘rganish hamon dolzarb vazifalardan bo‘lib qolmoqda.Ma’lumki, shoir asarlarining tilini o‘rganish uning

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

hayotligidayoq boshlangan edi. XV-XIX asrlar davomida Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston va Turkiyada Navoiy asarlarida qo‘llangan so‘zlar va grammatik shakllarni izohlab beruvchi o‘zbekcha (chig‘atoycha) – forscha, o‘zbekcha (chig‘atoycha)- turkcha lug‘atlar maydonga kelgan edi. Bunday lug‘atlarga Toli Hiraviyning “Badoe’ ul - lug‘at” ini, “Abushqa”, “Lug‘ati turkiy”, “Kelurnoma”, “Sangloh”,“Moboni ul - lug‘at” kabi asarlarini keltirish mumkin. Bu biz yosh erkin tadqiqotchilar uchun bir talay qulayliklar tug‘dirdi. Turkiy (eski o‘zbek) tilining boyligi va jozibasi unga xos keng imkoniyatlarning Navoiy ijodi misolida yaqqol ro‘yobga chiqishi lingvistlar adib merosi til xususiyatlarini chuqur ilmiy asosda tadqiq etishga undab kelmoqda. Mazkur yo‘nalishda turkologiya hamda o‘zbek tilshunosligida ko‘pdan ko‘p izlanishlar olib borildi, ilmiy asarlar, lug‘atlar, risolalar, maqolalar chop etildi, anjumanlar chaqirildi. Navoiy ijodi til xususiyatlariga bag‘ishlangan ishlarning ko‘pligi ularni alohida – alohida zikr etish imkonini bermaydi. Ammo navoiyshunoslikka ulkan hissa qo‘shgan A.K.Borovkov, A.N.Kononov, A.M.SHcherbak, G‘.Abdurahmonov, A.Rustamov, e.Fozilov, O.Usmonov,-B.Bafoev, K.Eraslan, Y.A.Ekmani, E.Umarov, B.Hasanov, M.Raxmatullaeva, A.Karimov, B.O‘rinboev, I.Nosirov, Z.Hamidov, singari tilshunoslarning beqiyos mehnatini e’tirof etish maqsadga muvofiq. Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilini yanada mukammallashtirish uchun o‘zbek tilining butun ichki imkoniyatlaridan foydalandi. Hazrat Navoiy “Muhokamatul-lug‘atayn”da turkiy (o‘zbek) tilining fazilati “o‘n sakkiz ming olamdan ortuq”, zeb-ziynat osmoni “to‘qqiz falakdin ortuq” tilining fazilat xazinasi “durlari kavokib (yulduzlar) gavharlaridin ravshandaroq”, gulshandagi gullari “sipehr axtaridin duraxshandaroq” (ko‘k yulduzlaridan ko‘ra ochilganroq) bo‘lib jilvalanadi.Shoir turkiy (o‘zbek) tilini oyoq tegmagan chamanga o`xshatadi.

Navoiy bu chaman durdonalaridan o‘z ijodida kehg foydalandi. Navoiy, shu bilan birga,bu go‘zal tilni yanada mukammallashtirish uchun fors va arab tillarining boy imkoniyatlaridan ham ustalik bilan foydalandi va turkiy (o‘zbek) tilining qanchalik boy, go‘zal va latifligini o‘z asarlarida namoyish qildi. Alisher Navoiy turkiy (o‘zbek) tilining go‘zalligini, boy imkoniyatlarini namoyish qilish, uni qadrlashning katta ijtimoiy ahamiyatini ham yaxshi tushungan. Yagona adabiy turkiy til tarqoq turkiy qabilalarning birlashib, yagona qudratli davlat tuzishga vosita bo‘lishini yaxshi anglagan:

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yak qalam.
Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yak qalam.

Alisher Navoiy o‘zining nazariy qarashlari bilan o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligining poydevorini yaratgan. Uning "Muhokamat ul-lug‘atayn" asari tilshunoslik tarixida noyob hodisa bo‘lib, turkiy tilning boyligi, leksik imkoniyatlari, grammatik tuzilmalari va estetik qudratini ilmiy asosda isbotlaydi. Bu asar o‘zbek tilining mustaqil adabiy til sifatida qaror topishida muhim manba bo‘lgan.

Navoiyning “Mizan ul-avzon” asari esa aruz ilmi va she’riy san’at asoslarini o‘rgatishda nazariy va amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. U aruz vaznining tuzilmasi, turlarini misollar bilan yoritib, adabiy ijodkor uchun zarur bo‘lgan bilimlarni taqdim etgan. Bu esa o‘z navbatida Navoiy nafaqat ijodkor, balki ilmiy-nazariy maktab asoschisi sifatida ham baholanishiga asos yaratadi.

Adabiyotshunoslik yo‘nalishida esa "Majolis un-nafois" asari alohida o‘rin tutadi. Bu asar ilk adabiy-biobibliografik to‘plam bo‘lib, unda 450 dan ortiq shoir va adiblar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Ularning ijodi, badiiy mahorati, individual uslubi haqida fikrlar bildirilib, tanqidiy yondashuv asosida baho berilgan.

Metodologik yondashuvda Navoiy asarlari tarixiy-kontekstual, leksik-semantik va nazariy-estetik jihatdan o‘rganildi. Bu esa uning merosini nafaqat adabiy, balki lingvistik, madaniy va falsafiy mezonlar asosida tahlil qilish imkonini beradi.

Natija va muhokamalar

Bugungi kunda buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning bitmas-tuganmas xazina atalmish so‘z durdonalaridan bahramand bo‘lmagan, ummonga qiyos qilgudek ijod olamidan bir qatra yod bilmagan kishi bo‘lmasa kerak. Har bir xalqning milliy o‘zligi, eng avvalo uning tilida aks etadi. Vatan istiqlolini mustahkamlamoqday sharafli ishda ona tiliga, hazrat Navoiy kabi buyuk ajdodlar merosiga buyuk kuchdir. Mutafakkir shoirimizning “Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami”, degan satrlarida qanchalik chuqur ma’no bor. Ya’ni, bu dunyoda insonlarning dard-u tashvishlarini o‘ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir. Xalqning g‘amidan uzoq bo‘lgan insonni odam qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi, deb uqtirmoqda ulug‘ bobomiz.

Yoshlarni ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ularning o‘z ijodiy intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun barcha shart-sharoit yaratilayotgan bugungi kunda Navoiy shaxsiga bu qadar e’tibor- - ezgu maqsadlarimiz sari yana bir olg‘a qadamdir.Buyuk tariximiz, ulug‘ allomalarimiz ijodini keng targ‘ib etish, shu asosda Yangi O‘zbekiston, degan yurtni butun dunyoga tarannum etish muqaddas vazifamizdir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Alisher Navoiy o‘z davrining ilg‘or tilshunos va adabiyotshunosi bo‘lish bilan birga, bu fanlarning hozirgi rivoji uchun ham tamal toshini qo‘ygan. Uning til haqidagi qarashlari zamonaviy tilshunoslik nazariyalariga yaqin bo‘lib, tilni xalq ruhiyati, estetik qarashlari bilan bog‘liq holda o‘rganadi.

Muhokamalar davomida shuni ta’kidlash lozimki, Navoiy o‘zbek tilining imkoniyatlarini isbotlash orqali o‘z davridagi "forsiy til ustun" degan qarashlarga qarshi turib, milliy o‘zlikni asrash va rivojlantirishga asos solgan. Bu g‘oyalar bugungi til siyosati va adabiy-estetik qarashlar bilan uyg‘unlikda yashab kelmoqda.

Shuningdek, Navoiy tilshunoslik va adabiyotshunoslikni bir-biridan ajratmasdan, ularni o‘zaro uyg‘un holda tahlil qilgan. Bu yondashuv zamonaviy til va adabiyot integratsiyalashuvi uchun o‘rnak bo‘lishi mumkin.

Xulosa

Alisher Navoiyning tilshunoslik va adabiyotshunoslikka qo‘shgan hissasi faqat o‘z davrini emas, balki keyingi asrlarni ham o‘z ta’siri ostida olib kelgan ilmiy merosdir. U turkiy tilning adabiy va ilmiy qudratini isbotlab, o‘zbek adabiyoti uchun nazariy asos yaratgan.

Navoiy asarlari bugungi kunda ham tilshunoslik va adabiyotshunoslik darsliklarida asosiy manba sifatida qo‘llanilib kelinmoqda. Uning izchil va mukammal ilmiy yondashuvi, badiiy tafakkuri, nazariy bilimlari orqasidan o‘zbek tili ilmiy tilda o‘z o‘rnini topgan.

Shunday qilib, Alisher Navoiy nafaqat o‘z davrining, balki butun turkiy xalqlarning ilmiy va madaniy taraqqiyotida beqiyos iz qoldirgan ulug‘ allomadir. Uning bu yo‘nalishlardagi merosi - xalqimizning faxrli boyligi va zamonaviy ilm uchun mustahkam asosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017. — B. 112]

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-4

2. Navoiy, Alisher. To'la asarlar to'plami: 10 jildlik / A.Navoiy; – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.-768 b.J.6: Xamsa:Hayrat ul-abror. Farhod va Shirin.-812 b

3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. –B.